

YOZMA NUTQ JARAYONIDA YO'L QO'YILADIGAN AYRIM IMLOVIY XATOLAR

Abdunazarov Otabek

Bojxona instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Tilga e'tiborli bo'lish mamlakatimizda yashovchi har bir shaxsning burchidir. Zero, hech bir xalq o'zining tiliga ega bo'lmas ekan, xalq, millat sifatida shakllanmaydi va tan olinmaydi. Quyidagi maqolada o'zbek tiliga xos bo'lgan ba'zi xususiyatlar hamda so'z boyligidan o'rinli foydalanish haqida fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, maqolada yozish jarayonida yo'l qo'yiladigan xatoliklar va ularning oldini olish bo'yicha tavsiyalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: imlo lug'at, savodxonlik, imlo xatolik, imlo qoidalari, talaffuz va yozish, tovush ortishi, tovush tushishi, qo'shimcha.

Аннотация: Внимание к языку — это долг каждого человека, проживающего в нашей стране. Ведь если народ не обладает своим языком, то он не может сформироваться как нация и не будет признан как таковой. В следующей статье приводятся размышления о некоторых особенностях узбекского языка, а также о правильном использовании его словарного запаса. Также в статье рассмотрены ошибки, которые могут возникать в процессе письма, и даны рекомендации по их предотвращению.

Ключевые слова: Орфографический словарь, грамотность, орфографическая ошибка, правила орфографии, произношение и письмо, увеличение звука, уменьшение звука, аффикс.

Annotation: Paying attention to the language is the duty of every individual living in our country. Indeed, if a nation does not have its own language, it cannot form or be recognized as a nation. The following article discusses some features specific to the Uzbek language and the appropriate use of its vocabulary. Additionally, the article offers recommendations for avoiding mistakes that may occur during the writing process.

Key words: Orthographic dictionary, literacy, orthographic error, rules of orthography, pronunciation and writing, sound increase, sound reduction, affix.

Bizga ma'lumki, o'zbek tili yer yuzidagi boy va qadimiy tillardan biridir. Uning muhtasham va katta ko'lamdagi so'z xazinasini nihoyatda cheksizdir. O'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining boy tarixi va jozibadorligi, madaniyati va adabiyoti bilan boshqa tillardan ajralib turadi. Ana shu tilimizni sof va dog' tekkizmasdan asrash uchun bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo shunga qaramasdan foydalanuvchilar tomonidan tilimizdagi so'zlarning talaffuzida, imlosida bir qator kamchiliklar,

xatoliklarga yo‘l qo‘yib kelinmoqda. Xususan, tilimizdagi ba‘zi so‘zlarning yozilishida yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar haqida fikr yuritmoqchimiz.

Dastavval imlo xatolik o‘zi nima degan savolga javob topib olaylik. 1995-yil 24-avgustda O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini tasdiqlash haqida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori qabul qilindi. Ushbu imlo qoidalarida to‘g‘ri yozish bilan bog‘liq yettita bo‘lim, 82 ta band mavjud. Demak, imloviy xatolik deganda so‘zlarni va qo‘shimchalarni noto‘g‘ri yozish tushuniladi. O‘zbek tilida keng tarqalgan imlo xatolarning yuz berish sabablari haqida to‘xtalsak. Imlo xatoliklarning yuz berishiga sabab bo‘ladigan bir necha omillarni sanab o‘tish mumkin:

a) ba‘zi so‘zlarning talaffuzi va imlosining bir-biriga mos kelmasligi; Masalan: aqil, hukm, mator, manitor, kumpyuter, traktir, milyon, akeyan kabi aytiladi, ammo aql, hukm, motor, monitor, kompyuter, traktor, million, okean shaklida yoziladi. Bu qoidani bilmagan o‘quvchi talaffuzdagi kabi yozadi va xatolikka yo‘l qo‘yadi;

b) ba‘zi o‘zlashma so‘zlarda “v” tovushining “f” tarzida talaffuz qilinishi yoki “f” tovushining “p” tarzida talaffuz qilinishi; Masalan: ayrimlar aftobus, aftomat, aftomabil shaklida aytadi va yozadi. Lekin avtobus, avtomat, avtomobil tarzida yozish imlo me‘yorlariga mosdir;

d) ayrim o‘zlashma so‘zlarda yonma-yon keladigan unlilar orasiga bir undosh tovushning qo‘shib talaffuz qilinishi; Bu holatda ham o‘quvchi so‘zni aytilgani kabi yozib xatolikka yo‘l qo‘yadi. Masalan: oyid, oyila, radiyo, doyim, teyatr, laureyat, mazayka shaklida aytiladi, lekin oid, oila, radio, doim, teatr, laureat, mozaika shaklida yozilsa, imloviy xatolikka yo‘l qo‘yilmagan bo‘ladi;

e) o‘zbek tilida -ga, -gan, -gach, -gina, -gudek, -guncha, -gancha kabi qo‘shimchalarning uch xil aytilish va yozilish shakli borligi;

Bu banddagi qo‘shimchalar k undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda qo‘shimchadagi “g” undoshi “k” undoshiga; “q” undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda esa “q” undoshiga aylanadi, boshqa holatlarda esa asl holicha yoziladi. Ko‘pgina o‘quvchilarimiz ana shu qoidani bilishmaydi va xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Masalan: chiq + gan = chiqgan shaklida yozishadi, aslida esa chiqqan shaklida yozilishi kerak, yoq + gach = yoqqach yozishadi, aslida esa yoqqach yozilishi kerak.

f) -ga, -dan, -gina, -gach, -gani, -guncha kabi -g bilan boshlanuvchi qo‘shimchalar -g‘ undoshi bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda -qa, -qan, -qina, -qach, -qani, quncha shaklida talaffuz qilinadi, lekin asl holicha yoziladi. Ushbu qoidani bilmagan o‘quvchi tog‘ + ga = toqqa, bog‘ + ga = boqqa, tug‘ + gan = tuqqan, sog‘ + gan = soqqan shaklida talaffuz qilishadi va yozishadi. Natijada imlo xatolikka yo‘l qo‘yishadi. Aslida, yuqoridagi so‘zlar tog‘ + ga = tog‘ga, bog‘ + ga = bog‘ga, tug‘ + gan = tug‘gan, sog‘ + gan = sog‘gan tarzida yozsak, imlo qoidalariga rioya qilgan bo‘lamiz;

g) ba'zi holatlarda ayrim so'zlarning talaffuzida tovush tushish hodisasi yuz beradi. Bu holatni imlo qoidalaridan xabari bo'lmagan o'quvchi yozuvda ham aks ettiradi. Masalan: nima, bilan, sira, piyoz, biroq, chiroq kabi so'zlardagi i unlisi bilinar-bilinmas talaffuz qilinadi va nma, blan, sra, pyoz, broq, chroq ko'rinishida xato yoziladi. Bu esa mazmunan tushunmovchilikka olib keladi va tabiiyki, matn bilan tanishayotgan shaxsni chalg'itadi. Yuqoridagi sanab o'tilgan omillardan kelib chiqib aytish mumkinki, matn yozishda kelib chiqayotgan xatoliklarning bosh sabablaridan biri imlo qoidalar bilan to'liq va mukammal tanishib chiqilmaganlikdadir.

Har qanday muammoni hal qilish uchun dastlab uning kelib chiqish sabablarini aniqlash va unga qarshi chora-tadbirlarni ishlab chiqish darkor. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ma'lumot yoki matnni yozish jarayonida imloviy xatoliklarning oldini olish uchun, birinchi navbatda, savodxonlikni oshirish shart. Buning uchun quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- Imlo qoidalar bilan yetalicha tanishib chiqish va unga amal qilish;
- Badiiy asarlar mutolaasi bilan shug'ullanish;
- Paronimlar, ya'ni bir harf bilan farq qiluvchi so'zlar haqida ma'lumotga ega bo'lish;
- Diktant yozish;
- Yozish jarayonida diqqatli va e'tiborli bo'lish;
- Yozib bo'lgach, tegishli ma'lumot yoki matnni yana bir bor ko'zdan kechirish.

Demak, maqola oxirida so'ng so'z o'rnida aytish mumkinki, to'g'ri va bexato yozish shaxsning tilimizga bo'lgan hurmati, uni sof saqlashi va tilimizning ravnaqiga bee'tibor emasligidan dalolatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek tilining imlo lug'ati. Filologiya fanlari doktori, professor N.M.Mahmudov tahriri ostida.
2. O'zbek tilining asosiy imlo qoidalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 339-sonli qarori asosida.